

KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH QAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YULI.

Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti ,Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi kafedrasida assistenti .

Annotatsiya: *Maqolada Respublikamiz Xorijiy davlatlarda mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznesning roli, tutgan o'rnini. Kichik biznesni qo'llab -quvvatlash tadbiri taqdim etilgan. SHuningdek bu borada tuzilgan chet el va mahalliy tajribalarni umumlashtirilgan holda kelajakda mazkur sektorni yanada rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar kursatilgan.*

Qambag'allikni qisqartirish masalasi bugungi islohotlarning asosini tashkil etadi. Chunki ushbu muammoning hal etilishi mamlakatimiz iqtisodiyoti va xalqimiz farovon hayotini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kambag'allikning yuqori darajasi ham jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga sababdir. Bu, eng avvalo, hukumatga ishonchning kamligi va kam daromadli guruhlarning mavjud muammolarini hal qilishga qodir emasligi bilan bog'liq. Mazkur maqolada kichik biznesni rivojlantirish qambag'allikni qisqartirish yili bayon qilingan.

Kalit so'zlar: *kichik biznes, biznes, xususiy kichik tadbirkorlik, xususiy tadbirkorlik sub'yektlari, kichik biznesni qo'llab - quvvatlash, kichik biznes rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. qambag'allik, ishsizlik, qambag'allikni qisqartirish, Xitoy tajribasi, kambag'allikni asosiy sabablari*

Аннотация: *Вопрос сокращения бедности лежит в основе сегодняшних реформ. Потому что решение этой проблемы важно для обеспечения экономики нашей страны и благополучной жизни нашего народа. Высокий уровень бедности также является причиной роста социальных конфликтов в обществе. Это связано, прежде всего, с отсутствием доверия к правительству и его неспособностью решить существующие проблемы малообеспеченных слоев населения. В данной статье описывается сокращение бедности и ее причины.*

Ключевые слова: *бедность, безработица, сокращение бедности, китайский опыт, основные причины бедности*

Abstract: *The issue of reducing poverty is the basis of today's reforms. Because solving this problem is important for ensuring the economy of our country and the prosperous life of our people. The high level of poverty is also the reason for increasing social conflicts in society. This is primarily due to the lack of trust in the government and its inability to solve the existing problems of low-income groups. This article describes the reduction of poverty and its causes.*

Key words: *poverty, unemployment, poverty reduction, Chinese experience, main causes of poverty*

KIRISH

O'zbekiston prezidentining «Qambag'al va ishsiz aholini tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori imzolandi. Tadbirkorlik tizimlarini rivojlantirishda mahalliy hokimiyatning tasir qilish imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha mamlakatimiz tajribasining ko'rsatishicha, keyingi yillarda tadbirkorlikni etarli darajada jiddiy rivojlantirish ta'minlandi. 2018 - yil 1- yanvar holatiga mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan 285,5 mingta korxonalarining 229,6 mingdan ortig'i kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi va ularning 10 foizi qurilish sohasida faoliyat olib borayotgan kichik korxonalaridir. Tashkiliy - huquqiy nuqtai nazardan olib qaraganda jami korxonalarining 7,5-8 mingtasi xususiy korxonalar hisoblanadi. Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning umumnazariy, mintaqaviy va tarmoq muammolari bir qator respublikamiz olimlarining ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Kichik biznesni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini va sub'ektlarining ustivor faoliyat turlarini rag'batlantirish,

- kichik biznes sub'ektlari bilan bog'liq yuqori savdo va moliyaviy tavakkalchiliklarning ta'sirini kamaytirish, etarli raqobatchilik muhitida kichik tadbirkorlikning barqaror faoliyat olib borishini ta'minlash,

- kichik korxonalarining ishlab chiqarish fondlarini modernizatsiyalash, ilg'or texnologiyalar va yangi uskunalarni joriy etish bo'yicha imtiyoz va preferensiyalar berish,

- resurslarni to'plash va ularning ustivor yo'nalishlarda qo'llashga ko'maklashish.

Birinchi navbatda yordam olishning ustivor huquqi, imtiyoz va preferensiyalar ham ustivor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan faoliyat turi bo'lib shug'ullanuvchi kichik korxonalariga qaratilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2018 yil 1 yanvar holatiga kichik biznesning ulushi mamlakatdagi barcha korxonalar va tashkilotlar soni bilan solishtirilganda - 76,5% ni, ro'yxatga olingan yuridik shaxslar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha ko'rib chiqadigan bo'lsak, bunda xususiy korxonalar 75,8% ni tashkilo qiladi. Mamlakatimizda kichik biznesning doimiy ravishda tashkil etilishi, ularni 20 tadan ortiq iqtisodiy faoliyat turlari: asosan, savdo, sanoat, qurilish, transport va aloqa, sog'liqni saqlash va boshqa ijtimoiy xizmatlar bo'yicha taqsimlanishini ta'minladi.

Qambag'al va ishsiz aholini kasb-hunarga o'rgatish hamda ularning mehnat faolligini oshirish bo'yicha respublika ishchi guruhi tarkibi, aholi bandligini ta'minlash va ishchi kuchining raqobatbardoshligini oshirish dasturi tasdiqlandi;

Rossiya Federatsiyasida faoliyat yuritayotgan mehnat migrantlarini o'qitish choralari belgilandi.

Qaror orqali Qambag'al va ishsiz fuqarolarni kasb-hunarga o'qitish tizimini joriy etish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy xarajatlar ajratildi hamda ularning manbalari, yo'nalishlari va ko'lamlari belgilandi.

Mamlakat iqtisodiyoti uchun aholining yashash tarzi va ularning moliyaviy imkoniyatlari muhim hisoblanadi, – dedi T.Ahmedov. – Shu jihatdan qaraganda, har bir davlat, birinchi navbatda, qambag'allikni qisqartirish choralarini ko'radi, bu yo'lda xalqaro tajribani o'rganadi va o'zining dasturlarini ishlab chiqadi.

Avvallari "qambag'allik" so'zi taomilimizda bo'lmagan. O'tgan besh yillikda esa qambag'allikni qisqartirish tendensiyasi bilan bog'liq qator ishlar amalga oshirilmoqda. Lekin rivojlangan xorijiy davlatlarda birinchi o'rinda aholining qam ta'minlangan qatlamiga moliyaviy ko'mak berish chora-tadbirlari ko'rilgan.

Kichik biznesni rivojlantirish darajasi 1000 kishiga mo'ljallangan kichik korxonalar soni bilan tasniflanadi. E.U davlatlarida bu ko'rsatgich 30 ga yaqin korxonalardan iborat.

Mamlakatimizda ham bu borada xorijiy tajribalar o'rganilib, qambag'allikni qisqartirishga qaratilgan milliy dasturlar ishlab chiqildi. Masalan, 2018 yildan boshlab hududlarda aholini tadbirkorlikka jalb qilish va shu orqali yangi ish o'rinlari yaratish maqsadida «Har bir oila – tadbirkor» dasturi joriy etildi.

Mavzuning dolzarbligi: Mehnat bozorida raqobatga dosh berolmaslik, boqimandalik kayfiyatining yuqoriligi, milliy urf-odatlardagi ortiqcha sarf-xarajatlar, ta'lim tizimidagi salbiy holatlar va hududlarda tibbiyot sifatining pastligi qambag'allikka yetaklovchi asosiy sabablardir. Ma'lumki, O'zbekistonda qambag'allik mavzusi "yopiq" bo'lib kelgan. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoki kam ta'minlangan oila deb ta'riflanardi. Uch yil avval esa O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hech bir qog'ozga o'ramasdan kambag'allik degan tushunchani aniq-tiniq qayd etdi va respublikamizda bu daraja tan olindi. 2020 yilda ochiqdagi dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonda qambag'al aholi 12-15 foizni, ya'ni 4-5 mln.ni tashkil etgandi. O'shanda bu toifa aholining kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan ham oshmasligi ma'lum qilingan. 2022 yil respublikada qambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushdi. Bunda hokim yordamchilarining 1 mln nafar aholini kasb-hunarga o'qitib, ish bilan band qilgani muhim omil bo'ldi, deyiladi prezident ishtirokidagi videoselektor yig'ilishida. Koronakrizis davrida «Temir daftar», «Ayollar daftari», «Yoshlar daftari» kabi manzilli dasturlar aholining qambag'al qatlamini qo'llab-quvvatlashda muhim choralar bo'ldi, deyish mumkin. Xususan, 2021 yil 1 noyabr holatiga, «Ayollar daftari»ga kiritilgan 65,2 ming nafar xotin-qizlarga 973,6 milliard so'm, «Yoshlar daftari»ga kiritilgan 56,6 ming nafar yoshlarga 1,3 trillion so'm, «Temir daftar»ga kiritilgan 5,7 ming nafar fuqaroga 94,4 milliard so'm miqdorida imtiyozli kreditlar yo'naltirilgan.

Hukumat qaroriga muvofiq, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lganlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida «Mehr daftari» joriy qilingani ham bu boradagi tizimli ishlar bilan mushtarakdir. Unga ko'ra, bolalar ushbu daftarga tuman

yoki shahar hokimi qarori asosida kiritiladi va undan 25 yoshga to'lganda chiqariladi. Bunda daftardan chiqarilayotgan shaxslarning bandligi ta'minlangan va uy-joyi mavjud bo'lishi shart. O'zbekiston kambag'allikni qisqartirish sohasida o'ziga andoza sifatida Xitoy tajribasini tanlagan. Sababi Xitoy 2012 yilda 98,99 mln aholisi kambag'al bo'lgan bo'lsa, 2016 yilda qariyb ikki baravarga qisqarib, 43,35 mln. Kishini tashkil etgan. 2020 yilda esa kambag'allik darajasi 0 ko'rsatkichni qayd etib, Xitoy kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha insoniyat tarixida mo'jiza ko'rsatdi, deyish mumkin. Xitoy bu natijaga oddiy tilda tushuntiradigan bo'lsak, belgilangan chora-tadbirlarning ijrosiga jiddiy va qat'iy e'tibor qaratish bilan erishgan,

Xulosa: Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining rivojlantirishning xalqaro tajribalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes, birinchi navbatda ma'muriy nazoratga emas, balki moliyaviy va iqtisodiy qo'llab-quvvatlashga muhtoj. Shunday ekan, kichik biznes uchun davlat kafolatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Davlat kafolatlari o'zida tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan xatti harakatlarni tizimli ravishda amalga oshirishlari, shuningdek, investor hisoblangan va yuridik shaxslar ro'yxatidan o'tishidan qat'iy nazar investisiyalarni himoya qilishga qaratilgan chora tadbirlar tizimini yaratish kerak. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida to'plangan xorijiy va respublikamizda to'plangan tajribalarni umumlashtirilgan holda kelgusida maskur sektorni yanada rivojlantirish borasida quyidagi taklif va tavsiyalarni berish mumkin.

Kichik biznesni rivojlantirish qambag'allikni qisqartirish yuli borasida bir mamlakat tajribasini boshqa mamlakatda aynan qo'llash imkoniyati, ya'ni yagona formulaning mavjud emasligi O'zbekistonda ham xalqaro tajribani inobatga olgan holda, aholining ehtiyojmand qismini qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos tizimini yaratishni taqozo etdi. Xususan, dastlab 2018 yildan mamlakatimizda oilaviy tadbirkorlikni tizimli amalga oshirish boshlangan bo'lsa, ushbu tizim va uni qo'llash mexanizmlari o'tgan davr mobaynida amaliyotda yuzaga kelgan kamchiliklar hamda muammolarni bartaraf etish orqali bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi.

Takliflar: Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shu takliflarni berishimiz mumkin. Kichik biznesni rivojlantirish qambag'allikni qisqartirish yulining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqish;

Qambag'al oilalar bilan ishlashning zamonaviy va samarali usullarini joriy etish;

Qambag'allikni kamaytirishda aholining kasb-hunar egallashi va kasbiy tayorgarlikni oshirishda keng imkoniyatlar berish;

Ko'proq yangi ish o'rinlarini yaratish;

Qambag'al oila farzandlarini sifatli bilim olishiga ko'maklashish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022 yil Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yilning 18-dekabrida Oliy Majlisga murajatnomasi uza.uz.
3. Муртазаев, О., Мирзаев, Ж. А., & Саидмуродов, М. Т. (2021). Стихияли шаклланган меҳнат (мардикорлар) бозори таҳлили ва уни бартараф қилиш йўллари. DEVELOPMENT ISSUES OF INNOVATIVE ECONOMY IN THE AGRICULTURAL SECTOR, 267.
4. Камола, П. А., & Саидмуродов, М. Т. (2023). МЕВА-САБЗАВОТ КЛАСТЕРЛАРИДА МАРКЕТИНГ ТИЗИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY, 1(7), 1-4.
5. Саидмуродов, М. Т. (2023). ХУДУДЛАРДА АҲОЛИНИ ИШ БИЛАН ТАЪМИНЛАШ ВА ТУРМУШ ДАРАЖАСИНИ ОШИРИШ. PEDAGOG, 6(3), 197-200.
6. Olim, M., & Ablakulovich, I. G. A. (2022). ECONOMIC ANALYSIS OF THE ACTIVITY OF AGROSERVICE ENTERPRISES AND ITS PROFIT INFLUENCE FORECASTING. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 1(1), 28-38.
7. Olim, M., Ablakulovich, I. G., & Shukurov, I. S. (2022). CLUSTER SYSTEM AND ITS ORGANIZATIONAL MECHANISMS. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 1(1), 1-11.
8. Murtazaev, O., & Muhammadkhuja, E. (2022). Small business as the main driver of economic development: State of, development problems and proposed incentive measures. Asian Journal of Research in Business Economics and Management, 12(9), 39-43.
9. Tadjiev, A., & Murtazaev, O. (2016). Water Resources And Food Production In Agriculture (No. 923-2016-72879).
10. Avazalievich, M. S., Ablakulovich, I. G., Olim, M., Mamadievich, G. I., & Maciejczak, M. (2013). Production capacity and financial results of an enterprise from the grain industry in Uzbekistan. Roczniki Naukowe Stowarzyszenia Ekonomistów Rolnictwa i Agrobiznesu, 15(5).
11. Olim, M., & Baxtiyorovna, U. O. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 758-766.
12. Olim, M., & Bakhtiyorovna, U. A. (2023). THE IMPORTANCE OF SMALL INDUSTRY ZONES IN THE DEVELOPMENT OF REGIONS. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 218-224.
13. Ilyos, A., & Uralov, B. Investment Strategy as a Factor of Innovation in Uzbekistan. JournalNX, 453-456.
14. Uralov, B., & Ishturdiyev, H. (2023). O'zbekistonda hududlar kesimida raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati.
15. Maxmudovich, U. B., Baxtiyorovich, B. M. Z., & Ikrom o'g'li, A. H. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOTNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY IQTISODIY

